


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2025-yil 1-may holatiga ko'ra
(dehqon va fermer xo'jaliklarisiz)*

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1-may holatiga ko'ra, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 22,2 mingtani tashkil etadi, shundan 18,1 mingtasi yoki 81,8 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024 yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 88,8 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 86,1 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).

Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
2025	22 231	18 279	18 194
2024	25 029	21 221	21 133
2023	23 458	19 773	19 683
2022	24 308	20 622	20 524
2021	22 794	19 156	19 079

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Nukus shahrida – 26,4 foiz, To'rtko'l tumanida – 10,5 foiz, Beruniy tumani – 9,0 foiz, Amudaryo tumani – 8,2 foiz va Ellikqal'a tumanida – 6,7 foizi faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Nukus shahrida – 26,9 foiz, To'rtko'l tumanida – 11,2 foiz, Beruniy tumani – 9,3 foiz, Amudaryo tumani – 8,4 foiz va Ellikqal'a tumanida – 6,6 foizga to'g'ri keldi.

Tumanlar kesimida korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Tumanlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22 231	18 279	18 194
Amudaryo tumani	1 821	1 522	1 520
Beruniy tumani	1 994	1 691	1 683
Bo'zatov tumani	376	294	293
Qorao'zak tumani	549	405	404
Kegeyli tumani	720	569	564
Qung'iro't tumani	1 306	1 050	1 042
Qonliko'l tumani	611	486	484
Mo'ynoq tumani	571	457	454
Nukus tumani	853	699	699
Taxiatosh tumani	692	562	557
Taxtakopir tumani	377	260	255
To'rtko'l tumani	2 333	2 049	2 046
Xo'jayli tumani	1 165	960	954
Chimboy tumani	995	776	770
Shumanay tumani	506	377	375
Ellikqal'a tumani	1 482	1 206	1 200
Nukus shahri	5 880	4 916	4 894

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1-may holatiga 30,2 foizni tashkil etdi.




Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 11,5 foiz, uchinchi o'rinda "Sanoat" 10,9 foiz. Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida soni (birlikda)

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 561	2 502	2 497
Sanoat	2 416	2 414	2 379
Qurilish	1 506	1 483	1 477
Savdo	6 705	6 704	6 698
Tashish va saqlash	799	794	792
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 267	1 261	1 261
Axborot va aloqa	423	389	386
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	651	406	406
Boshqa turlar	5 903	2 326	2 298

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-may holatiga ko'ra, 18,1 mingta faol tijorat korxonalaridan 14,5 mingtasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	14 564	79,7
Xususiy korxonalar	1 672	9,1
Oilaviy korxonalar	1 710	9,4
Aksiyadorlik jamiyati	20	0,1
Boshqalar	313	1,7

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 160 ta korxonalardan 67 qo'shma korxonalar va 93 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1-may holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan yo'nalishlar bu sanoat sohasidagi korxonalar soni 70 ta, savdo sohasida 33 ta va qurilish sohasida 13 tani tashkil yetdilar.

Iqtisodiy faoliyat turlari	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	160	67	93
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	9	5	4
Sanoat	80	32	48
Qurilish	13	5	8
Savdo	33	11	22
Tashish va saqlash	1	1	0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	2	1
Axborot va aloqa	3	1	2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1		1
Boshqa turlar	17	10	7

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 60 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi.

Bu respublikadagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 37,5 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib eng ko'p hissasini qo'shgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi 17,5 foizni, Turkiya 8,1 foizni, Qozog'iston 3,1 foizni va Janubiy Koreya 5,6 foizni tashkil etadi.

Davlatlar	Jami:	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	160	67	93
Xitoy	60	20	40
Rossiya	28	16	12
Turkiya	13	3	10
Qozog'iston	5	2	3
Afg'oniston	2	2	
Janubiy Koreya	9	2	7
Turkmaniston	6	3	3
BAA	4	2	2
Germaniya	3		3
Qirg'iziston	2		2
Boshqa davlatlar	28	17	11

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025-yil 1-may holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
B. Daribaev
61 222-78-37 (9560)

Maznil:
230103, Nukus sh.,
A. Dosnazarov ko'chasi, 97 a-UY
